

XALQARO TADQIQOTLAR TAJRIBASIDA XORIJIY TIL VA ADABIYOTNI O'QITISH METODIKASI

Toshtemirova Marjona

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: xorijiy til va adabiyotlarni o'qitish metodikasini xalqaro tadqiqotlar kontekstida o'rganadi. O'qitish jarayonida o'quvchilarning til va madaniyatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy pedagogik uslublar va strategiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda xorijiy til o'qitishning innovatsion metodlari, multimedia asboblarning qo'llanilishi, shuningdek, madaniyatlararo muloqotning roli ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion metodlar, zamonaviy pedagogika, ta'lim resurslari, o'qitish jarayoni, talabalar bilan ishlash, o'quv metodlari, ta'lim sifatini oshirish, xorijiy til, metodika

Аннотация: изучается методика преподавания иностранного языка и литературы в контексте международных исследований. В процессе обучения важно использовать современные педагогические методы и стратегии, чтобы повысить интерес учащихся к языку и культуре, развить их коммуникативные способности. В исследовании разрабатываются инновационные методы обучения иностранному языку, использование мультимедийных средств, а также роль межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: инновационные методы, современная педагогика, образовательные ресурсы, учебный процесс, работа со студентами, образовательные методы, повышение качества образования, иностранный язык, методика.

Abstract: studies the methodology of foreign language and literature teaching in the context of international studies. In the process of teaching, it is important to use modern pedagogical methods and strategies in order to increase students' interest in language and culture, to develop their communicative abilities. Innovative methods of foreign language teaching, the use of multimedia tools, as well as the role of intercultural communication are developed in the research.

Key words: innovative methods, modern pedagogy, educational resources, teaching process, working with students, educational methods, improving the quality of education, foreign language, methodology.

Xalqaro globalashuv ta'sirida axborot makonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi, pedagog kadrlarni tayyorlashda o'zgacha yondashuvni, ya'ni innovation, zamonaviy axborotkommunikasiya texnologiyalari va axborot-metodik ta'minot tizimi yordamida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni davr talabiga aylantirmoqda. Bugungi

kunda xorijiy tillarni o'qitish metodlari jadal rivojlanib, ularning samaradorligini oshirish uchun yangi yondashuvlar va innovasion usullar qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda pedagoglarni tayyorlash va ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan bir qator amaliy ishlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, pedagog kadrlarning mavjud o'quv-uslubiy va ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari yanada takomillashtirilib borilmoqda. Mazkur jarayonning borilayotganligi boshqarishning davlat tomonidan amalga oshirilishi va mamlakat miqyosida ahamiyatga molik bo'lgan Davlat dasturlarining qabul qilinishi va unda belgilangan vazifalarning bajarilishi amaliyotda o'z samarasini berayotganligining natijasidir. Til o'rganish jarayonida badiiy adabiyotdan foydalanish talabalarning tilini boyitish, leksik va grammatik bilimini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Nemis tilini o'qitishda badiiy adabiyotning ahamiyatini o'rganish va uni samarali qo'llash metodlarini tahlil qilish pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nemis tilni o'qitishda talabalarga turli janr va uslublarda yozilgan matnlar bilan tanishish imkonini beruvchi badiiy adabiyot ularning leksik zaxirasini boyitishga yordam beradi. Shuningdek, badiiy adabiyotda qo'llanilgan grammatik konstruksiyalar va frazeologik birikmalar talabalarning grammatik bilimini mustahkamlaydi. Badiiy adabiyot orqali nemis tilni o'rganuvchi talabalar o'sha til madaniyati va tarixini yaxshiroq tushunishadi, nemis adabiyotini o'qish orqali ular Germaniyaning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va qadriyatlarini haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadilar. Nemis til o'qituvchilari darsda nemis adabiyoti namunalaridan foydalanishni oldiga maqsad qilar ekan, eng avvalo, badiiy asar talabalarning yosh va bilim darajasiga mos kelishiga alohida ahamiyat qaratish lozim, jumladan, ular uchun qiziqarli va sodda yozilgan qissalar, qisqa hikoyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Chet til — bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir. Xorijiy tillarni o'rgatishda metodikaning o'ri katta rol o'ynaydi. Metodika bu o'qituvchining qanday dars o'tishini o'rganadi. Metodika tarixga oid adabiyotlarni chuqurroq o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san'at deyishadi. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar., ya'ni — yaxshi yoki — yomon metod yoki, aksincha — yaxshi yoki — yomon o'qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda

bayon qilingan fikrlari bilan javob berish mumkin. U jumladan shunday deydi: —Agar kimki metodikani sanʼat deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalida qoʻllanishi bilan qorishtirib yuboradil. Har bir fanda oʻz tushunchalar yigʻindisi mavjud. Xorijiy til oʻqitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: talim sistemasi, taʼlim metodi, taʼlim prinsipi, taʼlim vositasi, metodik usul. Xorijiy til oʻqitish metodi- deyilganda xorijiy til oʻrgatishning amaliy, umumtaʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni taʼminlovchi muallim va oʻquvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi —taʼlim usullari yigʻindisi va —talimning yoʻnalishi maʼnolarida qoʻllanadi. Birinchisi taʼlim nazariyasida jarayon metodlar maʼnosida ishlatilsa, ikkinchi maʼnoda uni oʻqitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, xorijiy til oʻqitishning tarjima metodi, toʻgʻri metod, ongli- qiyosiy metod, anʼanaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi. Xorijiy til oʻqitish metodikasi didaktika bilan uygʻun, oʻzaro bogʻlangan holda rivojlanib kelgan. Barcha oʻquv fanlarining oʻqitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga maʼlum. Xorijiy til oʻqitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika taʼlimning umumiy nazariyasi, metodika muayyan oʻquv predmetini oʻqitish ilmi, lingvodidaktika tillarni tillarni oʻqitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni oʻqitish ilmi sifatida qaraladi. —Metodlarni bilim, malaka, koʻnikma egallash, oʻquvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yartish yoʻlidagi oʻqituvchi-pedagog va talabaning yoki oʻquvchining ish usuli maʼnolarini bildiradi. Quyida metodlarning mohiyati va amalida qollay olishdagi samaralari haqida soʻz yuritamiz. Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Rahmanov tomonidan chuqur oʻrganilgan. Tarjima metodi asosan ikki koʻrinishda boʻlib, grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan xorijiy til umumtaʼlimiy maqsadda oʻrganilgan. Grammatik mashqlar til oʻrganuvchining mantiqiy tafakkurini oʻstirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish taʼlimning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til oʻrganish yozma nutqqa asoslangan.
2. Oʻrganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli boʻlgan.
3. Oldin, Grammatik qoida yod olingan, soʻng esa soʻzlarning maʼnosi soʻzmasoʻz tarjima vositasida ochib berilgan.
4. Grammatik shakl va soʻzlarning maʼnosi soʻzma-soʻz tarjima vositasida ochib berilgan.
5. Soʻzma-soʻz tarjima va quruq yodlash yoʻli bilan til materiali oʻzlashtirilgan.
6. Soʻzlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.

Bundan tashqari, kommunikativ didaktika til oʻrganuvchining tabiiy nutqiy vaziyatdan unumli foydalanishini birinchi oʻringa qoʻydi, yaʼni transportdagi, vokzaldagi, eʼlonlar, radio va televideniyaedagi reklamalar, telefondagi suhbatlar va shu kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Axborotni tinglab tushunish hamda qabul qilish boʻyicha qoʻyilgan maqsadlar oʻzgardi. Tinglaganini hikoya qilish va nazorat qilish ham boshqacha tus oldi. Mazkur metod maqsaddan kelib chiqqan holda tinglovchiga tinglab

tushunishning yangicha turlarini ajratib olishga yordam berdi. Xalqaro tadqiqotlar tajribasi tili va adabiyotini o'qitishning yangi metodologik yondashuvlarini ishlab chiqishda, ta'lim sifatini oshirishda va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda ahamiyatli rol o'ynaydi. Innovatsion metodlar xorijiy tilni o'qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Interaktiv usullar, tadqiqot asosidagi yondashuv va xuddi shunday amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va o'rganish samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda multimediat exnologiyalari xorijiy tilni o'qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. Video, audio va interaktiv platformalar orqali o'quvchilar tilni o'rganishda yanada ko'proq qiziqish va motivatsiya his etishadi. Bu metodika doimiy yangilanib turadi va o'quv jarayonini boyitadi. Xorijiy til o'qitishda madaniyatlararo muloqotning o'rni alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar xorijiy madaniyat, an'analar va an'analar bilan tanishish orqali tilda o'zini erkin his qiladilar. Bu jarayon muloqot va tushunishni chuqurlashtiradi. Xorijiy tilni o'qitishda asosiy maqsad o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdir. O'quvchilar tilni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham o'zlashtirishlari kerak. Tugallanmagan muloqot, rol o'ynash va guruh ishlari bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar xorijiy til o'qitishda inkluzivlik, o'zaro hamkorlik va talabalar faolligini oshirishga qaratilgan. Bu yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlariga muvofiq o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xalqaro tadqiqotlar tajribasida xorijiy til va adabiyot o'qitish metodikasi yangi imkoniyatlar va yondashuvlar bilan boyitilmoqda. O'qituvchilar va tadqiqotchilar ushbu metodlarni hayotga tatbiq etishda davom etishlari lozim, chunki bu o'quv jarayonining sifatini oshirishga va o'quvchilarning til qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qitish metodikasini yangilash va takomillashtirish orqali xorijiy til o'rganish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. —O'qituvchi— nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
2. Bekmuratova U. B. —Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil.
3. XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODIKASI TerDU akademik litseyi Xorijiy tillar kafedrası nemis tili fani o'qituvchisi Axmedova Sayyora AAbduraimovna.
4. XALQARO TADQIQOTLAR TAJRIBASIDA NEMIS TILINI O'QITISH VA BADIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH METODIKASI .Sattorova Shaxnoza Raxmonqulovna.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-qitish-nazariyasi-va-metodikasi>
6. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/05/NamDU-ARM-4078-CHET_TIL_0_QITISH_METODIKASI.pdf